

# Ijodiy-madaniy ishlar bo'yicha targ'ibotchining umumiyl o'rta ta'lim muktab o'quvchilar o'rtasida madaniyatni targ'ib qilish masalalari

Sherzod Jumanov  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim-tarbiya konsepsiyasida madaniyatni ommalashtirish muammosi alohida o'ren tutadi. Maqolada o'quvchilarning o'ziga xos idroki, uning yoshga bog'liq psixologik xususiyatlari va ushbu ma'lumotlarga asoslanib, muktab o'quvchilari orasida madaniyatni ommalashtirish usullaridan biri keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniylashuv, o'smirlar o'rtasida madaniyatni ommalashtirish, gumanistik pedagogika, zamonaviy ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash

## Issues of promotion of culture among general secondary school students of the publicist on creative and cultural affairs

Sherzod Jumanov  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Abstract:** The problem of popularization of culture occupies a special place in the modern concept of education. The article presents the unique perception of students, its age-related psychological characteristics and, based on this information, one of the methods of popularizing culture among schoolchildren.

**Keywords:** acculturation, popularization of culture among teenagers, humanistic pedagogy, modern education and self-education

Umumiyl o'rta ta'lim muktablari o'quvchilarining rivojlanish yosh davri o'smirlilik davriga to'g'ri keladi. Ushbu davrda bolalikdan kattalikka o'tish, o'quvchining qiziqishlari doirasi, ideallari va intilishlari o'zgaradi. Bu vaqtda o'quvchilarda milliy madaniy qadriyatlarni o'zlashtirilishini qo'llab-quvvatlash juda muhim, chunki ular nafaqat bolaning ongida mustahkam o'rnashib qoladi, balki o'quvchi shaxsining yanada madaniy rivojlanishi va boyitilishi uchun qulay zamin bo'lib xizmat qiladi.

Umumiyl ta'lim muktab o'quvchilarining shaxs sifatida ijobiy fazilatlarining rivojlanishi uning tarbiyasi, milliy madaniyatni o'zlashtirish darajasi bilan bog'liqdir.

Shaxsnинг о‘з милий ма’навија ва маданијајатига кириб бориш јарони “маданијалашув” деб аталади. Маданијалашув бу шахснинг дуньода ма’лум бир тарзда харакат қилиш, фикрлаш, хис қилиш ва идроқ этишга муносабати ва moyilliklarining yig‘indisini anglatib, o‘quvchi shaxsida milliy ruhni shakllantirish bilan yakunlanadi [1].

Bu о‘рinda K.D.Ushinskiyning гапи о‘ринли бо‘лади: “...Yoshlikni tiriltiruvchi оловида инсоннинг характери quyiladi. Shuning uchun ham bu оловни о‘чирмаслик, undan qo‘rmaslik va unga xavfli narsa sifatida qaramaslik,jamiat uchun uning erkin yonishiga to‘sinqilik qilmaslik va faqat yoshlik ruhiga quyilgan fazilatlarning ijobjiy bo‘lishi haqida g‘amxo‘rlik qilish kerak” [2].

Yuqoridagi fikrdan, shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ta’lim-tarbiya ѡаронида милий маданиятни targ‘ib қилиш бо‘yicha ishlar ikki yo‘nalishda оlib borilishi kerak: ta’lim-tarbiya (bilim berish) va ijodiy (biror yangi narsa yaratish uchun rag‘bat berish).

Ushbu yo‘nalishlar гуманistik педагогиканинг тушунчаларида аниqlik билан ifodalangan: o‘quvchi shaxsining rivojlanishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash имкониятларини бериш, o‘ziga xoslikni izlashga, topishga ko‘maklashish.

Mohiyatan o‘z-o‘zini tarbiyalash нима, qanday ro‘y beradi, shakl va vositalari, usullari mavjudmi? O‘z-o‘zini tarbiyalashni intiutiv ruhiy omillar orqali o‘quvchi shaxsining o‘tgan ajdodlar tajribasini o‘rganish ѡарони деб hisoblashimiz mumkin. Shunday qilib, ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash bir ѡароннинг ikki tomoni bo‘lib, ular yakka holda mavjud bo‘lmaydi va buni esdan chiqarmasligimiz kerak.

O‘quvchilarning ta’limiy faoliyatlarini tashkil қилиш учун ularning shakllanish даврining асосија xususiyatlarini e’tiborga олив kerak. Bu vaqtda o‘quvchidagi sifatlar yangi bosqichga ko‘tariladi: balog‘atga etish tuyg‘usi paydo bo‘лади - o‘z-o‘zini anglashning yangicha shakllanishi, o‘zi, odamlar va dunyoning eng muhim xususiyatlari haqida o‘quvchida yangi hayotiy qarashlar paydo bo‘лади. Birinchidan, maktab o‘quvchisi – o‘smir o‘zining bolalar olamiga mansubligini rad etadi, ikkinchidan, u hali ham haqiqiy, to‘laqonli balog‘at yoshiga etgani yo‘q, ammo katta ekanligini atrofdagilar tomonidan qabul qilinishiga harakat qiladi.

Maktab o‘quvchisi shakllanishidagi muhim yo‘nalish mazmunli qiziqishlarni rivojlanirish ва kelajak учун rejalar tuzish istagi билан bog‘liq bo‘lib, u yangi bilimlarni o‘zlashtirish ва faoliyatida yangilik qila олив xohishida ko‘rinadi. Voyaga etishning rivojlanishi билан o‘quvchilarning kognitiv faoliyatida standart ta’lim rejalaridan tashqariga chiqadigan o‘zgarishlar ham kuzatiladi. Bunday faoliyat maktab fanlari, texnologiyalar, adabiyot va san’atning boshqa sohalariga tegishli bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning бу даврдаги yana bir xususiyati - bu qiziquivchanlik, yangi va qiziqarli narsalarni anglab оливdir.

Yuqoridagi xususiyatlar asosida umumiy ta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida madaniyatni yuksaltirish tamoyillari qurilishi kerak. Faqat tamoyillarga amal qilinganda tarbiyaviy ishlarda qulaylik va yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Madaniyatni tarkib toptirishdagi asosiy muammo, bu ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchining o'quvchilar o'rtasida o'z-o'zini tarbiyalashning rolini unutmasligi, ya'ni ma'lum bir madaniy jarayon yoki hodisa haqida tushuncha berishi, o'quvchilarning suhbat mavzusi bo'yicha fikr-mulohazalarini shakllantirish va ifodalash shartligiga ahamiyat berishidir.

Bu o'quvchilar tomonidan ba'zida o'z shaxsiy erkinligini cheklash sifatida tushuniladi va uning atrofidagi dunyoga va unda sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan qiziqishini susaytiradi.

Targ'ibotchi har bir mashg'ulotni madaniyatni tarkib toptirishning bir vositasi sifatida ko'rib, gumanistik pedagogika tamoyillariga muvofiq mavzular va ularni o'tkazish shakllarini tanlashi kerak.

Maktab o'quvchilarida madaniyatni tarkib toptirishga bag'ishlangan mashg'ulotni o'tkazishning eng samarali shakllaridan biri bu polilog elementli suhbatdir. Targ'ibotchi bunday shakldan foydalanganda har qanday madaniy mavzu bo'yicha mashg'ulotni o'tkazishi mumkin: adabiyot, she'riyat bilan tanishishdan boshlab, ma'lum bir san'at yoki umuman o'zbek xalqi madaniyati haqida.

Bunda targ'ibotchi o'quvchilar suhbatlashadigan mehmon – mutaxassisga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Ideal o'quvchining qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, mehmon-mutaxassis taniqli, obro'li, yorqin shaxs, kuchli xarizmaga ega bo'lishi va eng muhimi, yoshi o'quvchilarning yoshiga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. Bu mashg'ulotda xuddi shu sinfning parallel sinf o'quvchisi ham ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin. Albatta, mutaxassis o'smirlarning fikr-mulohazalarini eshita olish va qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, halol bo'lishi va har qanday muhim ma'lumotni o'quvchilardan yashirmasligi kerak.

Targ'ibotchining o'zi umumiy masalalar bo'yicha mutaxassis bilan hamjihatlikda bo'lishi, o'z nuqtai nazarini, ko'rib chiqilayotgan masalaga, ekspert va tinglovchilarning fikriga hissiy munosabatini bildira olishi juda muhimdir. Targ'ibotchi o'quvchilarni o'ziga jalb qilish uchun ishonchi komil bo'lмаган narsaga ishontirishga urinishi mumkin emas.

Bu haqda L.N.Tolstoy ham shunday degan edi: "O'zing umuman ishonmaydigan yoki hech bo'lмаганда shubhalanayotgan narsangni o'qimishli odamga aytma, xususan, muqaddas, inkor etib bo'lmas haqiqat deb tushuntirishga urinma. Bunday qilish katta jinoyatdir" [3].

Targ'ibotchi mashg'ulot vaqtini ikki qismga bo'ladi. Birinchi bo'limda o'quvchilarga ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha taqdimot, videofilm orqali,

ekspert bilan suhbat o'tkazish jarayonida, umumiylar yoki guruh muhokamasida yangi tushunchalar, bilimlar beriladi. Bu bosqich nazorat qilinishi va ma'lum bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ikkinci qismda mutaxassis bilan birgalikda yoki uning rahbarligida yangi madaniy ob'ekt - madaniy artefakt yaratishga harakat qilinadi. Ushbu jarayonda barcha ishtirokchilar qamrab olinishi kerak, tinch, yoqimli muhitda, masalan, klassik yoki boshqa sokin musiqa yordamida yaratilishi mumkin bo'lgan va o'quvchilarni haddan tashqari individuallashtirishga majburlash yoki aksincha, uni bostirishga qaratilgan bo'lmasligi kerak. Bunday tadbirlarning natijalari o'smirlar uchun mazmunli bo'lishiga erishilishi kerak.

Badiiy asarlarni ovoz chiqarib o'qish, tahlil qilinishini ta'minlash yoki ularni baholash jarayoniga nafaqat mutaxassislarni, balki barchani jalb qilishi mumkin. Oxirida "Meni nima hayratda qoldirdi?", "Menga nima yordam berdi?", "Menga nima to'sqinlik qildi?", "Nima qiyin edi?", "Nima oson?", "Men nima qilishni xohlayman?", "Men nimani qilmayman?", "Sinfda nimani ko'rishni xohlayman?", "Sinfda nimani ko'rishni xohlasmayman?" kabi savollarga javoblar berishni taklif qilish kerak.

Targ'ibotchining mashg'ulotlarni bunday tashkil etishning afzalligi - bu o'quvchilarning mutaxassisiga yaqinligi, umumiylar tushunchalar emas, balki o'z savollarini berish va ularga haqiqiy javob olish imkoniyatidir. O'quvchilar o'zlarining sinf jamoasi faoliyatidagi ishtirokini his qiladilar, o'zlarining individualligini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu o'ziga ishonch, mustaqillik va ijodiy faollikni shakllantirishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazishning yana bir shakli ekskursiyalardir. Ularda o'quvchilarning ekologik madaniyati, tug'ilgan qishloq, shahrining me'moriy xususiyatlari, madaniyatning zamонавиy tendensiyalari (ochiq graffit festivallari, mahorat darslari, ko'rgazmalar, ochiq osmon ostidagi konsertlar) bilan tanishishi maqsadga muvofiqdir.

Ekskursiya uchun mutaxassis talab qilinmaydi, avvalgi tadbirlar davomida to'plangan tajriba etarli hisoblanadi. Targ'ibotchi ekskursiya boshida ko'rsatma beradi, bu ko'rsatmalar quyidagicha bo'lishi mumkin: masalan: "Bugun biz birgalikda shahar arxitekturasi vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini va bu tarixiy voqealar yoki badiiy moda bilan bog'liqligini aniqlashga harakat qilamiz?" yoki "Bugun biz graffiti yaratishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz, uning odatiy rasm bilan qanday umumiyligi va farqlar borligini aniqlashga harakat qilamiz?" kabi.

Ekskursiya davomida o'quvchilarning e'tiborini ba'zi ma'lumotlarga qaratish kerak, buning natijasida ular vaziyatni tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun mini-ma'ruzalar, munozaralar yoki aqliy hujum

texnologiyasini tanlash yaxshidir. Vaqtning ozgina qismini (taxminan 5-10 daqiqa) yangiliklarni o‘quvchilar etkazishga sarflaganingizdan so‘ng, asosiy masalani muhokama qilishga o‘tiladi.

Targ‘ibotchi savollar yordamida o‘quvchilarning fikrlash pog‘onasini yo‘naltirishi, ko‘rib chiqilayotgan muammoga ta’sir qilgan madaniyat, fan yoki tarixiy voqealar bayoni bilan parallel olib borishga majbur qilishi kerak.

Ekskursiya davomida targ‘ibotchi har bir o‘quvchining nuqtai nazarini tinglashi muhimdir. Agar fikrning dalillari bo‘lmasa yoki o‘quvchi o‘z fikrini bayon qilishdan cho‘chisa, unda targ‘ibotchi uning his-tuyg‘ulari haqida so‘rashi kerak. Targ‘ibotchi har bir o‘quvchining o‘z fikrini bildirishiga ishonch hosil qilishi kerak.

O‘quvchilar charchamasliklari kerak, aks holda bu mashg‘ulotning umumiy bahosiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yo‘nalish davomida dam olish mumkin bo‘lgan joyni ekskursianing o‘rtasida va oxirida joy toping. Ekskursiya yakunida mulohaza yuritish uchun “bu men uchun foydali bo‘ldi”, “men quyidagi histuyg‘ularni boshdan kechirdim”, “menda bor edi”, “bu men uchun oson”, “men uchun qiyin bo‘ldi”, “menga etmadni”, “men qoniqdim” kabi so‘zlarni ishlatish foydali bo‘ladi.

Ekskursianing afzalligi - odatdagagi partada o‘tirish o‘rniga jismoniy harakat qilish imkoniyati, mакtab devorlaridan tashqarida jamoaviylik hissini shakllantirish mumkinligidir.

Shuni aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarning madaniy muhitga muvaffaqiyatli kirib borishi uning madaniyatga qiziqishi, mustaqil fikrlash va harakat qilish qobiliyatiga, yangi madaniy muhit yaratish jarayonida ishtirok etishiga bog‘liq. Targ‘ibotchining vazifalari:

- o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun asosiy bilimlarni taqdim etish;
- o‘quvchilarga ijodiy bo‘lish, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifoda etish imkoniyatini berish;
- yangi madaniy ob’ektlarni yaratish bilan bog‘liq jamoa, kichik guruh va shaxsning faoliyati uchun qulay muhit yaratish;
- o‘quvchilarga milliy madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishlarini qo‘llab-quvvatlash.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Stolyarenko, L. D. Pedagogicheskaya psixologiya [Tekst] / L. D. Stolyarenko. — Izd. 5-e., ispr. — Rostov n/D : Feniks, 2008. — 541 s.
2. Rojkov, M. I. Pedagogicheskoe obespechenie raboty s molodejyu. YUnogogika [Tekst] : ucheb. posobie dlya studentov vuzov, obuchayushchih po spetsialnosti «Organizatsiya raboty s molodejyu» / M. I. Rojkov. — M. : VLADOS, 2008. — 264 s.

3. Mir detstva. YUnost [Tekst] / pod red. A. G. Xripkovoy ; otv. red. G. N. Filonov. — M. : Pedagogika, 1988. — 432 s. : il